

2022-yil – Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili

IJODIY PARVOZ

2022-yil may № 5 (109) ✓ dsmi.uz ✓ nashriyot@dsmi.uz ✓ ijodiyparvozgazetasi



XOTIRA BOR EKAN – MILLAT BARHAYOT



Ibrohim YO'LDOSHEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori,
filologiya fanlari doktori, professor

Barchamizga ma'lumki, 9-may mamlakatimizda keng miqyosda “Xotira va qadrlash kuni” umumxalq bayrami sifatida katta tantanalar bilan nishonlanadi. 1941 –1945-yillar urush va mehnat frontida tinchlik uchun kurashib halok bo'lgan jasur va matonatli o'g'lonlar xotirasi yod etiladi. Mamlakatimizda urush haqidagi barcha haqiqatni aniqlash, ularni xalqimizga yetkazish, qahramon ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchi jahon urushi xalqimiz boshiga juda qora kunlarni olib kelgan. Urush arafasida O'zbekistonda 6,5 million aholi yashagan bo'lsa, shundan 1 million 500 mingdan ziyodi frontga safarbar etilgan. Hamyurtlarimiz insoniyat tarixidagi eng dahshatlari, qonli urushda mardlarcha jang qildi, ularning orasidagi bir qator yurdoshlarimiz olovli janggohlarda halok bo'ldi, yana qanchasi yurtimizga yarador, nogiron bo'lib qaytdi. Ko'plab bolalar yetim goldi. O'sha davrarda yurtimiz aholisi archarchilik, yo'qchilikdan qattiq azob chekdi. Biroq shunday qiyin damlarda ham xalqimizning qaddi bukilmasdi. Qiyinchilikka bardosh berdi.

Ana shunday mardlik, jasorat namunasini ko'rsatganlarni, jang maydonlarida jonini fido qilgan bobolarimiz, sabr-bardosh bilan katta qiyinchiliklarni yengib o'tgan momolarimizni sharaflash, xotirasini abadiylashtirish, ularga g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatish so'nggi yillarda yangicha ma'no-mazmun bilan boyidi. Vaqt o'tib borgani sayin Ikkinchi jahon urushi yillarda chinakam insoniylig namunasini ko'rsatgan yurdoshlarimizning g'alabaga qo'shgan hissasini qadri ortib bormoqda. Xalqimiz ularning tinchlik yo'lidagi buyuk jasoratini aslo unutmaydi. Xotira – insоннинг insoniyligi anglatuvchi, uni o'tmish va istiqbol bilan bog'lab turuvchi buyuk qadriyatdir. Axir, biz azaldan tinchliksevar xalqimiz. Aynan shu g'oya targ'ibiga bag'ishlangan buyuk milliy ma'naviy merosimiz bor. Ularning barchasida tinchlikning qadriga yetish targ'ib etiladi, urush esa batamom qoralanadi.

Mamlakatimizda har yili qabil qilinayotgan Davlat dasturlarida yoshi ulug' nuroniyalarga bo'lgan hurmat, e'tibor

qaratilishiga jiddiy ahamiyat beriladi. Ta'lim dargohimizda ham nuroniyalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ahvoldidan xabar olish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash an'anaga aylangan. Turli xotira kechalari tashkil etilmoqda. Tadbirlarda urush ishtiroychilariga sovg'a-salomlar ularshilmoqda.

9-may “Xotira va qadrlash” kuni va Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga 77 yilligi munosabati bilan poytaxtimizdag'i “G'alaba” bog'ida o'tkazilgan bayram dasturida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalarimiz faol ishtiroy etib, hukumatimiz va xalqimiz e'tirofiga sazovor bo'lishdi.

Darhaqiqat, inson aziz, xotira muqaddasdir. Chunki u kechagi o'tmishni, ajdodlar o'gitini, milliy merosimizni anglatib turuvechi muqaddas kitob zarvaraqlaridek, hayotimizni yoritib turadi. Qadr esa insonniyuksaklikka ko'taradi, uning faoliyatida olijanoblik bag'ishlaydi. Inson, millat va xalq tarixiy xotira tuyg'usi bilan barhayotdir. El-yurtining tinchligi, osoyishitaligi, erki va ozodligi uchun kurashgan insonlar xalqimiz ardog'idadir. Vatanimizni himoya qilishda jonini fido qilgan, xalq orzu qilgan erkinlik uchun kurashgan milliy qahramonlarimizni ruhi oldida hamisha ta'zim qilamiz. Xalqimiz ongi shuuriga tobora chuquroq singib borayotgan bu boqiy qadriyat qalblarga yorug'lik olib kirishi bilan bir qatorda yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda, ma'naviyatimizni yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'tganlarni xotirlash, safimizda yurganlarning esa qadriga yetish kerak.



O'zbek madaniyati va san'ati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, ijo etgan rollari, yaratgan obrazlari bilan xalqimizning ko'nglidan joy olgan, o'z ovozi, uslubiga ega bo'lgan atoqli san'atkolar talaygina. O'zbekiston xalq artisti, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi To'ti Yusupova, O'zbekiston xalq artisti, ustoz san'atkor, kino va teatr aktyori Lutfulla Sa'dullayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor, teatr rejissori, pedagog Jo'ra Mahmudov. Ularning barchasi noyob iste'dod egalari edi.

Matonatga to'la ayol, ona, san'atkor, farzandining vafotidan keyin kelinini tur mushga uzatgan, bir emas, besh o'lim chaqqan joni sinmagan, nabiralar uchun Jonfido To'ti Yusupovanining ismimi tilga olishimiz bilan ijo etgan rollari, yaratgan obrazlari, qahramonlarining yorqin qiyofalari ko'z o'ngimizda gavdalanaadi. Ayniqsa, kinoda va sahnada onalar obrazlarini talqin qilib, minglab, millionlab tomoshabinlarning mehrmuhabbatini qozonib, xalq e'zoziga sazovor bo'lganligini ko'pchiligidan yaxshi bilamiz. Aktrisaning buyuk mahorati shundaki, u har bir xattiharakatini, ssenariydagi so'z bilan

uyg'unlashtira olar edi. Bu kabi iste'dod esa hamma san'atkorga ham nasib etavermaydi. Vaholanki, T. Yusupova faqat ijobji rollarning emas, salbiy rollarning ham mohir ijrochisi edi. Ba'zi san'atkolar ijodida shunday hollarni kuzatish mumkinki, ular yo salbiy yo ijobji rolni mahorat bilan ijo etardi. Sahnaga nisbatan mehr, mas'uliyat juda kuchli edi.

To'ti Yusupova 1936-yilning 10-mart kuni Samarqand viloyatida tavallud topgan. Toshkent teatr va rassomlik instituti (hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti)ni tamomlagan.

2

“Porloq kelajakka qadam – mening mahallam bilan!”

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli topshirig'iga asosan o'tkazilayotgan “Porloq kelajakka qadam – mening mahallam bilan!” shiori ostida madaniy-ma'rifiy va harbiy vatanparvarlik ruhida tashkil etilgan tadbir O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ijodiy jamoasi juda faol ishtiroy etdi.

Poytaxtimizning joriy yilning aprel-may oyлари davomida Sergeli tumanidagi bir qator mahallalarida fuqarolar yig'ini hududlarida tashkil etilgan ushbu tadbirlar institutining “Milliy qo'shiqchilik” kafedrasini dotsenti, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, xushovoz xonanda, bastakor, “Do'stlik” ordeni sohibi Ahmadjon Dadayev badiy rahbarligi ostida faoliyat ko'rsatayotgan “Sayqal” ansamblini vakillarining bir biridan ajoyib musiqalari bilan boshlandi.

2

“MADANIYAT” JAMOASI CHEMPION

O'zbekiston professional futbol ligasi hamda Oliy va o'rta-maxsus ta'lif vazirligi hamkorligida mamlakatimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalari talabalari o'tasida tashkil etilgan “Students cup” mini-futbol musobaqasining Toshkent bosqichida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti “Madaniyat” jamoasi oliygohimiz sharafini munosib himoya qildi.

Ushbu musobaqaning saralash bahsida Toshkent kimyo-teknologiyalari institutiga qarshi babsa olib borgan futbolchilarimiz yakunda 5:1 hisobida g'alaba qozondi. Keyingi bosqichda esa Toshkent moliya institutining “Moliyachi” jamoasini 2:1 hisobida mag'lubiyatga uchratdi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev “Madaniyat” jamoasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Muloqotda talabalarimizni musobaqaning saralash bosqichidagi muvaffaqiyatli ishtiroyi bilan qutladi. Ularga navbatdagi babsa oldidan omad bo'ldi.

tiladi. E'tiborli jihat, rektorning tashabbusi bilan jamoamiz a'zolariga yangi sport kiyimlari taqdim etildi.

Nimchorak final bosqichida yo'l olgan futbolchilarimiz Toshkent davlat to'qimachilik va yengil sanoat institutining “To'qimachi” jamoasini qarshi babsa olib bordi. O'yinlar qizg'in kurash ostida o'tdi. Hech kim musobaqaga o'tkinchi turnir sifatida qaramadi. Barchaning maqsadi championlik. Lekin “Madaniyat” jamoasi raqiblarini 2:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Shu tariqa turnirning chorak final bosqichida qatnashadigan bo'ldi.



2



XOTIRA BOR EKAN – MILLAT BARHAYOT

Shu o'rinda aytish lozimki, so'nggi ikki yil ichida O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, "Do'stik" ordeni sohibi Muhammad Rafiqov, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Mahkam Muhammedov, O'zbekiston xalq artisti Mirza Azizov, O'zbekiston xalq artisti O'lmas Rasulov, O'zbekiston xalq artisti, aktyor Shuhrat Ergashev, O'zbekiston xalq artisti Baxtiyor Ixtiyorov, Maqom ilmi va san'atini puxta egallagan ijodkor, O'zbekiston xalq hofizi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi, O'zbekiston davlat konservatoriysi professori, O'zbek milliy maqom san'ati markazi ilmiy xodimi Mahmudjon Tojiboyev, O'zbekiston xalq artisti Dilbar Ikromova, O'zbek teatr va kino san'atining yirik namoyondasi, o'zbekning atoqli va ardoqli ijodkor, O'zbekiston xalq artisti, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi To'tixon Yusupova, O'zbekiston xalq artisti, ustoz san'atkor, kino va teatr aktyori Lutfulla Sa'dullayev, O'zbekiston xalq artisti Oybarchin Bakirova, O'zbekiston xalq artisti, taniqli kompozitor Shermat Yormatov, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zbekiston xalq artisti, mohir rejissor, aktyor, talabchan ustoz, mehrbon murabbibi Bahodir Yo'ldoshev, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Rahmatjon Qurbonov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, o'zbek dublyaj sohasida sermahsul ijod qilgan Sanjar Sa'dullayev, o'zbek dublyaj san'atining yorqin vakillaridan yana biri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist G'aybullay Hojiyev, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Aida Yunusova, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, dublyaj ustasi, taniqli aktyor Hoshim Arslonov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Abduraim Abduvahobov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Fathulla Ma'sudov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor, teatr rejissori, pedagog Jo'ra Mahmudov, O'zbekiston televidenyesining oliy toifali suxandoni, taniqli qo'shiqchi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shuhrat Qayumov singari san'at va madaniyat sohasida sermahsul ijod qilgan, o'zlaridan o'chmas iz qoldirgan ijodkorlar ham yorug' dunyon tark etdi. O'z faoliyatining ma'no-mazmumini ona xalqimizga, jonajon Vatanimizga sidqidildan xizmat qilishda deb bilgan bu fidoyi yurtoshlarimizning yorqin xotirasni qalbimizda hamisha abadiy yashaydi.

Bu aziz insonlar xalqimizning qalbi va ongi uyg'oq, vatanparvar farzandlari sifatida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning doimiy ishtirokchisi va targ'iботchisi edi. Ijod va hayot tajribasiga ega ustozlar sifatida o'nlab iste'dodli yoshlarni tarbiya qildilar. Ularning teatr sahnalarida, badiiy va televizion filmlarda yaratgan yorqin obrazlari, yurtimiz va jahon miyqosida e'tirof etilgan musiqiy asarlari abadiyat mulki bo'lib qoldi.

Bir so'z bilan aytganda, "Xotira va qadrlash kuni" Ikkinci jahon urushining ayanchli oqibatlarini unutmaslikka, tinchlik va osuda hayotning qadriga yetishga, Vatanga sadoqat hissi bilan yashashga, shuningdek, doimo ogoh va xushyor bo'lishga, tarixi xotiraga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

Zero, xotira aziz, qadr muqaddasdir! Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, mustaqilligimiz abadiy bo'lsin, aziz Vatandoshlar!

1957-yildan O'zbek Milliy Akademik drama teatrda faoliyat yuritgan. Teatr sahnasida Hafiza (Abdulla Qahhor, "Shohi so'zana"), Sonya (A.Chekov, "Vanya tog'a"), Qorasoch (Uyg'un, "Shubba"), Hojar (A.Qahhor, "Tobutdan tovush"), Nuri (Oybek, "Qutlug' qon"), Ona (E' Robles, "O'limdan kuchli"), Xonzoda (Hamza, "Boy ila xizmatchi"), Shafaq (M. Karim, "Oy tutilgan tunda"), Rahima (O'. Umarbekov, "Komissiya"), Sotti (S.Ahmad, "Kelinlar qo'zg'oloni"), Fotima, Zebi (O'.Umarbekov, "Shoshma quyosh", "Qiyyomat qarz"), Nodira (T.To'la, "Nodira") kabi turli qahramonlar obrazini yaratgan. "Abdullahon", "Ko'ngil ko'chalari", "Voiiz", "Dilxiroj", "Kichkina odamlar", "Shabnam", "Jazo", "Ojiza", "Nazira", "Berlin-Oqqo'rg'on" kabi ko'plab filmlarda ham suratga tushgan. Qahramonlari xarakterining ijtimoiy va psixologik jihatlarini chuqr ocha bilish, ularni ruhiy go'zallilik va hayotbaxshlik ruhi bilan ta'minlash, obraz mohiyatini muhit bilan uzviylikda olib borish To'ti Yusupova ijodiga xos jihatdir.

To'ti Yusupova samarali mehnati uchun 1994-yilda O'zbekiston xalq artisti unvonini oлgan, "El-yurt hurmati", "Fidokorona xizmatlari uchun", "Mehnat shuhrati" ordenlari bilan taqdirlangan.

Ushbu aktrisa ustozlari mashhur rejissor A.Tinzburg, Toshxo'ja Xo'jayevlardan san'at sohasining sir-asrorlarini o'rganib, o'z ustida mutazam ishlagan, tinmay izlangan, shu tariqa, san'atda o'z o'rmini topgan edi.

Shu o'rinda aytish lozimki, har bir soha vakilining o'zining ustoz shu sohaning yetuk mutaxassis, fidoyisi, ustasi bo'lishida ma'lum miqdorda o'zining hissasini

qo'shgan ustoz maqomidagi yaqin insoni bo'ladi. Shunday ustozlardan biri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor, teatr rejissori, pedagog Jo'ra Mahmudovdir. Ustoz xotiralashga arzigulik, qalban komil inson edi. J.Mahmudov 1942-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkent teatr va rassomlik instituti (hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti)da tafsil olgan.

Mehnat faoliyati davomida "Ona", "Qiyyomat qarz", "Insonlikka nomzod", "Og'riq tishlar", "Soxta oqsuyak", "Qayerdasan, jon bolam", "Qirol Lir" singari spektakllarni sahnalashtirgan. Har bir spektaklning badiiy-g'oyaviy yuksakligi, ta'sir kuchini oshirishda tasviriy musiqiy, texnik vositalardan unumli foydalangan. Shuningdek, "Adolat kuni", "Ovsinlar", "Sadoqat" kabi sahna asarları, "Osmondan tanga yoqqan kun", "Tomchi", "Alpomish", "Ikkivoy va Beshvoy" kabi kichik tomoshabinlarga bag'ishlangan ertak-pyesalar ham yozgan. Qolaversa, turkum maqolalari orqali Konstantin Stanislavskiy hayoti hamda faoliyati haqida muhim fikrlarni bayon etgan edi.

Mamlakatimizning yana bir buyuk san'atkor, kino hamda teatr aktyori, ustozimiz, qadronimiz Lutfulla Sa'dullayev ham o'zining kamtarligi, mehnatsevarligi, jonkarligi bilan xalqimiz hamda ijodkorlar oldida hamisha yuksak humrat-e'tiborga sazovor bo'lgan inson edi.

Sermahsul ijodi davomida teatr sahnasida 200 ga yaqin spektakllarda insonlarning yodida qoladigan, qalbidan o'rin egallaydigan ko'plab obrazlarni yaratgan. Muso Jalil ("Muso Jalil"), Bunyod ("Semurg"), Ibn Sino ("Donishmandning yoshligi"), Shog'ulom ("Janjal"), Omon ("Shum bola"), Mirqosim ("Zaharli tomchilar"), Ibn Mal'un ("Ming bir kecha") kabi ijrolari shular jumlasidandir. Kino va videofilmlar, televizion miniaturalar dasturida "Sadoqat", "Bebahoginam", Berdi ("Qismat"), Alimardon To'rayev ("Bahor qaytmaydi"), Mahkam ("Uch ildiz") singari 500 dan ortiq rollarni ijro etgan. Shuningdek, uzoq yillik ijodi faoliyatida davomida o'z hayoti va ijodidan hikoya qiluvchi, ustozlari, marhum hamkasbli haqidagi xotiraları jamlangan "Qismat", "O'kinch", "Meni kechir..." nomli kitoblarini nashrdan chiqargan.

Darhaqiqat, xalqimizning mehrmuhabbatini qozongan bu ulug' san'atkorlarning hayot va ijod yo'li haqida hikoya qiladigan ko'plab maqolalar yozilgan, asarlar, risolalar yaratilgan. Shu o'rinda biz ham baholi qudrat qog'oz qoralashga azmu shijoat qildik. Chunki ustozlarning xotiralarini yodga olib turish ham burchimiz, ham qarzimizdir.

**Behzod MIRZAYEV,
O'zDSMI Musiqali, dramatik
teatr va kino san'ati kafedrasи
katta o'qituvchisi**

"Porloq keljakka qadam – mening mahallam bilan!"

1 O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilarini, ushbu dargohda faoliyat olib borayotgan "O'zbekiston xalq artisti", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvonlari sohiblari, iqtidorli talabalarli "Jo'nariq", "Yangi Sergeli", "Belariq", "Xonobod", "Nurafshon", "Asrobod", "O'zgarish", "Qipchoq", "Madaniyat" va yana boshqa bir qator mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan umumta'lim maktablarida, mahalla markazlarida tashrif buyurishdi. Ular tomonidan chin insoniy fazilatlar, ezzulik, odamiylik, mehr va sadoqatni tarannum etuvchi qo'shiqlar, mumtoz ashulalar aytildi.

Bayramona kechalarda mahalla faollari, hududdagi taskilot, korxona, muassasalar mutasadilari, o'quv muassasalari direktorlari, mehnat faxriyalar, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar vakillari, uyushmagan yoshlar, ehtiyojmand ayollar, keksa va nuroniyalar jam bo'lishdi.

Xonandalarimiz tomonidan ijro etilgan qo'shiqlarning har bir satrida shukronalik kayfiyatni ufurib turdi. Ba'zi qo'shiqlarda xalqimizga xos oljanoblik, mehmondo'stlik, beg'uborlik, samimiyat ta'riflandi. Xonanda-yu, sozandalarning har bir chiqishlari tomoshabinlarning gulduros qarsaklari ostida qo'llab turildi. Bu esa o'z navbatida, san'atkorlarni quvontirdi, ruhlantirdi. Institut talabalarining orombaxsh qo'shiqlarga hamohang tarzda ijro qilingan go'zal raqslar esa barchani davraga chorladi. Qalblarga shodlik, xursandchilik jo etgan, barchaga ko'tarinkи kayfiyat ulashgan tadbirlar uchun mahallalar aholisi o'zlarining so'zlar, sho'x o'yinlari bilan institut rahbariyati, ijodiy jamaoga o'z minnadorchilagini izhor etdi.

O'zbekiston xalq artisti, Mukarrama Turg'unboyeva boschchiligidagi "Bahor" ansambl bilan bir qator mamlakatlarda o'zbek san'atini targ'ib qilishga ulkan hissa qo'shgan, O'zbekiston xalq artisti, professor Xayrulla Lutfullayev, O'zbekiston xalq hofizlari Orolmirza Safarov, Beknazor Do'stmuhammedov, Soyib Niyazov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Azamat Sharipov, Rustam Abdullayevlarning ijrosidagi qo'shiqlar barchada xush kayfiyat ulashdi.

Diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosi sifatida qadrlanayotgan she'r va g'azallarini qo'shiq qilib ijro etilayotgani ham o'z navbatida, mahalla

ahlining milliy va umuminsoni qadriyatlarga nisbatan hurmatini, e'tiborini yanada oshirishga xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ko'laming kengligi hamda ahamiyati jihatidan muhim bo'lgan ushbu tadbirga juda katta tayyorgarlik ko'rildi. Institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev boschchiligidagi o'ziga xos maslahat tusini olgan yig'iliishlar o'tkazilib, tadbirlar davomida kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik uqtirilgan. Musiqi cholg'ulalaridan juda mahorat biloydan foydalanan zarurligi qayd etilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizning kelajagi bo'lgan yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatl shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga zamonaviy usullar asosida yondashilmoxda, ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkil huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda. Ayniqsa, uyushmagan yoshlar uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlanirish borasidagi chora-tadbirlar so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Yoshlarimiz bularni dildan his qilib, teran idrok etishmoqda.

Bunday tadbirlar ham yoshlarimizni ma'naviy jihatdan sog'lon qilib voyaga yetkazish, ona-Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, avvalo, ularning qalbi va ongida masifikaviy immunitetini yanada kuchaytirish, milliy o'zligimiz hamda dunyonи chuqr anglaydigan insonlar bo'lib ulg'ayishida muhim o'rinn tutadi.

Qayd etish joizki, mahalla jamiyatda tinchlik-totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, milliy urf-odat va qadriyatlarini asrab-avaylash, oilalar jipslilagini ta'minlash, sog'lon va barkalom avlodni tarbiyalash, aholiq madaniga xizmat ko'rsatishda eng yaqin ijtimoiy tuzilma hisoblanadi. Mana shunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, bayramona kechalarni mutazam o'tkazish, orqali mamlakatimizdagи samarali islohotlarning mazmun-mohiyati xalqimizga yetkaziladi, fuqarolar qalbida bugungi kunitimizga shukronalik va ertangi kunga bo'lgan ishonch tuyg'ularini yanada oshirishga etishiladi.

Eng muhimi, mazkur tadbirlarda tashrif buyurgan, ishtirok etganlarning barchasi chinakam bayram kayfiyatida bo'ldi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

Ustozlarni xotirlab...

1957-yildan O'zbek Milliy Akademik drama teatrda faoliyat yuritgan. Teatr sahnasida Hafiza (Abdulla Qahhor, "Shohi so'zana"), Sonya (A.Chekov, "Vanya tog'a"), Qorasoch (Uyg'un, "Shubba"), Hojar (A.Qahhor, "Tobutdan tovush"), Nuri (Oybek, "Qutlug' qon"), Ona (E' Robles, "O'limdan kuchli"), Xonzoda (Hamza, "Boy ila xizmatchi"), Shafaq (M. Karim, "Oy tutilgan tunda"), Rahima (O'. Umarbekov, "Komissiya"), Sotti (S.Ahmad, "Kelinlar qo'zg'oloni"), Fotima, Zebi (O'.Umarbekov, "Shoshma quyosh", "Qiyyomat qarz"), Nodira (T.To'la, "Nodira") kabi turli qahramonlar obrazini yaratgan. "Abdullahon", "Ko'ngil ko'chalari", "Voiiz", "Dilxiroj", "Kichkina odamlar", "Shabnam", "Jazo", "Ojiza", "Nazira", "Berlin-Oqqo'rg'on" kabi ko'plab filmlarda ham suratga tushgan. Qahramonlari xarakterining ijtimoiy va psixologik jihatlarini chuqr ocha bilish, ularni ruhiy go'zallilik va hayotbaxshlik ruhi bilan ta'minlash, obraz mohiyatini muhit bilan uzviylikda olib borish To'ti Yusupova ijodiga xos jihatdir.

To'ti Yusupova samarali mehnati uchun 1994-yilda O'zbekiston xalq artisti unvonini oлgan, "El-yurt hurmati", "Fidokorona xizmatlari uchun", "Mehnat shuhrati" ordenlari bilan taqdirlangan.

Ushbu aktrisa ustozlari mashhur rejissor A.Tinzburg, Toshxo'ja Xo'jayevlardan san'at sohasining sir-asrorlarini o'rganib, o'z ustida mutazam ishlagan, tinmay izlangan, shu tariqa, san'atda o'z o'rmini topgan edi.

Shu o'rinda aytish lozimki, har bir soha vakilining o'zining ustoz shu sohaning yetuk mutaxassis, fidoyisi, ustasi bo'lishida ma'lum miqdorda o'zining hissasini



UMUMTA'LIM MAKTABLARI VA

OLIY TA'LIM MUASSASASI

HAMKORLIGI USTAHKAMLANMOQDA

Joriy yilning aprel oyida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida yig'ilishi o'tkazilgan edi. Unda institut rahbariyati, professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, tajribali olimlar, amaliyotchilar, tadqiqotchilar ishtirok etdi.

Institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev tomonidan joriy yilning 28-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida maktab ta'limi rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'iliishida belgilangan muhim vazifalar, olyi ta'lim tizimida olib borilayotgan ijobjiy hamda samarali o'zgarishlar, bu borada O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti faoliyati oldida turgan muhim ishlарda so'z yuritilgandi.

Yig'iliish davomida ta'kidlanganidek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti pedagogik jamoasi orasidan shakllantrilgan ishchi guruhi a'zolari poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 39 ta umuma'lim maktabida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlар samaradorligini o'rganadi va maktab pedagoglariga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatadi. O'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladigan xalqaro tajribalar e'tirof etiladi.

Hamkorlik doirasida o'quvchi va o'qituvchilar bilan ochiq muloqotlar tashkil etiladi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash mexanizmlariga jiddiy ahamiyat qaratiladi. Bolalarga milliy cholg'u asboblarini chalish

bo'yicha saboq beradigan o'qituvchilarining hamda ta'lim muassasalarda qo'shishcha tashkil etilgan mavjud musiqi to'garaklari faoliyati o'rganiladi. Ta'lim sifati va o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish hamda metodik qo'llab-quvvatlash borasida samarali vazifalar bajariladi. Ta'lim berish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan xalqaro tajribalar e'tirof etiladi.

Ta'lim muassasasiga tashrif buyurgan har bir pedagog xodim yoshlarning ta'lim tarbiyasi, darslardi, mashg'ulotlardi ishtirokiga jiddiy ahamiyat qaratadi. Pedagogik jamaoa a'zolari o'z kasblariiga nisbatan fidoyilik xislatini yanada oshirishga harakat qilishadi.

Samimiy ruhda o'tgan yig'iliish davomida istiqbolli rejalar belgilab ol

UMUMTA'LIM MAKtablari VA OLIY TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGI MUSTAHKAMLANMOQDA

2 Ular tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi jamoasi tomonidan 52-sonli maxsus ehtiyojli bolalar uchun mehnat ta'limi bilan ixtisoslashtirilgan maktabda tashkil etilgan tadbirda bitiruvchi yoshlarni kasba yo'naltirish va ularni maxsus maktabda o'rgangan hunarlarini jumladan, qizlardagi tikuvhilik, to'quvhilik, oshpazlik, madaniyatini va orasta faroshlik, o'g'il bolalardagi duradgorlik, kosibchilik, chilangarlik kabi kasblar ham jamiyat rivojiga katta hissa qo'shishtirish mumkin ekanligi ta'kidlandi. Kafedra professor-o'qituvchilarini tomonidan maktab o'qituvchilariga interfaol metodlari, ya'ni ("klaster", "debat", "ha-yo'q" o'yini,) asosida fanlarni tashkil qilish borasida maslahatlar berilish, mahorat darslari tashkil etildi.

"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi professor-o'qituvchilar ham bir qancha maktablarga tashrif buyurdi. Maktablardagi yaratilgan sharoitlar, ma'naviy muhit, ularda o'zbek tili, ona tili va adabiyot fanlarning o'qitilish darajasi bilan yaqindan tanishdi, dars tahlillari amalga oshirildi. Shuningdek, kutubxonalar faoliyati, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi o'rganildi. Maktablardagi mazkur fan o'qituvchilar bilan o'zaro tajribalar almashildi, o'quvchilar bilan suhbatlar, trening va mahorat darslari o'tkazildi. Kafedra hamkorlik aloqalarining kelgusidagi rejalari haqida kelishib olindi.

"Ovoz rejissorligi va operatorlik mahorati" kafedrasi professor-o'qituvchilar 170- va 156-umumta'lim maktabining bitiruvchi o'quvchilariga kinematografiya soha-sining mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berishdi. "Kinoteleoperatorlik", "Kino", "Televideeniye va radio ovoz rejissorligi", "San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalar" ta'lim yonalishlari bilan tanishirishdi. O'quvchilarini filmlar taqdimoti hamda tasvirga olish jarayonlarida qatnashib borishlari xususida kelinishva erishildi.

"Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasi tomonidan 30- hamda 23- umumta'lim maktablarida hamkorlik doirasida kefedoran professor-o'qituvchilar professor M.Ashurova, dotsent V.Yusupova, o'qituvchilar M.Xodjayeva va D.Zokirova tomonidan mahorat darslari, davra suhbatlari tashkil etilgan. Ushbu davra suhbatida O'zbekistondagi keng ko'lamli islohotlar, xususan, ta'lim tizimidagi ulkan o'zgarishlar tushuntirib berildi. Ma'ruzalar o'quvchi yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi. Tadbir davomida har ikkala maktab kutubxonasi kafedra professor-o'qituvchilar tomonidan taqdim qilingan badiiy adabiyotlar bilan boyidi.

Bundan tashqari, ushbu kafedra mas'ullari va 23-somli umumta'lim maktab jamoasi bilan yana bir samarali ishga qo'l urildi. Ya'ni maktab rahbari boshchiligidagi kelgan



maktab bitiruvchilariga kelajakdag'i kasb tanlashiga amalgi yordam berish maqsadida institutda ko'chma "Ochiq eshiklar" kuni tashkil etildi. Maktab jamoasini kutib olgan "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasi mudiri dotsent A.Abduxalilov ularni institut o'quv jarayonlari, o'quv binolari, O'quv teatri, Axborot-resurs markazi, institutda amalga oshirilayotgan bonyodkorlik ishlari, O'zbekiston xalq shoiri M.Yusuf ijodining institut jamoasi tomonidan amalgi o'rganishlar natijasi bilan yaqindan tanishtirdi. Shuningdek, mazkur tadbirda maktab o'quvchilar uchun oliygohning har bir fakultetidagi ta'lim yo'naliishi kesimida ma'lumotlar taqdim etildi. Institut professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkazilayotgan imtiyon jarayonlari bilan ham yaqindan tanishishdi. "Aktyorlik mahorati" fanidan bo'layotgan dars jarayonini qiziqish bilan kuzatishdi. Bunday tanishuv o'quvchi-yoshlarning kelajakdag'i kasbiy faoliyatlarini rejalari haqida kelishib olindi.

Qolaversa, 215- va 244-umumta'lim maktablarida "Folklor va etnografiya" kafedrasi professor-o'qituvchilar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Rustam Abdullayev, Umida Kurbanova, Kamoliddin Sunnatullayev, Bibiaysha Kudayberganova, Gulxumor Djamalxonjayeva, Mardon Yusuboyev o'quvchilarga folklor-etnografiya mutaxassisligi haqida atroficha ma'lumot berishdi.

Ushbu bo'lib o'tgan mahorat darsi o'quvchilarda musiqiy dunyoqarash, musiqiy idrok, musiqiy tessavur va musiqiy qobiliyatni shakkllantirishda va barkamol shaxsning rivojlanishida o'ziga xos ahamiyatiga egadir. Xalqimiz yaratgan folklor durdonlari yoshlar tarbiyasida, mehnatda, ijtimoiy munosabatlarda ma'lum darajada o'z ifodasini topadi.

"Sahna nutqi" kafedrasi o'qituvchilar Nigora Karimboyeva va Bahodir Mag'diyev tomonidan 153-umumta'lim maktabida, "Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati" kafedrasi ijodiy jamoasi tomonidan esa 61- va 67- umumta'lim maktabida ma'naviy-ma'rifiy tadbir, davra suhbatlari tashkil etidi va turli ko'rik-tanlovlari o'tkazildi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi

Xorijiy tillarni o'rganish nafaqat bugungi kunda, balki har qanday zamonda katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Yurtimizda xorijiy tillarni o'qitishga boshlang'ich ta'limdan boshlab, oliy ta'limgacha katta e'tibor qaratilmoqda.

O'ZBEKİSTON MILLİY KUTUBXONASIDA

xorijiy tillarni o'rganish uchun yaratilgan imkoniyatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydag'i PQ-5117-som qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etildi. Bugungi kunda ta'lim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini – ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab, fors tillarini o'rgatishni tashkilleshtirmoqda. Yurtimizdagi 207 nafr umumta'lim maktablari xorijiy tillarga ixtisoslashtirildi. Shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish, bu borada o'rganuvchilarga amaliy yordam berish maqsadida vazirliklar, chet tili o'qitishning turli sohalarida faoliyat yuritib kelayotgan ko'plab xorijiy va mahalliy tashkilotlar hamda davlat va nodavlat ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqlari yo'lg'a qo'yilgan. Jumladan, Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tomonidan Britaniya Kengashi, AQShning O'zbekistondagi elchixonasi, O'zbekistondagi Gyote instituti, Yaponiya va Koreya xalqaro hamkorlik agentliklari bilan aloqa o'rnatilib, hamkorlikda faoliyat olib borilmoqda. Ahamiyatlisi, joriy yildan magistratura bosqichiga o'qishga kirish imtihonlarida Xalqaro tan olingan chet tilini bilish darajasi haqidagi sertifikat yoki Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan beriladigan Chet tilini bilish darajasi haqidagi V2 yoki S1 darajasidagi sertifikat taqdim etish zarurligi belgilandi.

Endilikda, magistralar hamda doktorantlar uchun ingliz tilida maqola yoza olish talabi qo'yilmoqda. Ammo, ingliz tilida maqola yozishni o'rgatuvchi o'zbek tilida aniq manba yo'q. Buni o'rganish uchun izlanuvchi albatta ingliz tilini bilishi kerak. Chunki xalqaro ma'lumotlar bazalarini aynan ingliz tilida faoliyat yuritadi. Yana bir ahamiyatlari tomoni shundaki, o'zbek tilida maqola yozish bilan xalqaro ingliz tilida maqola yozish mezonnari bir biridan anchagina farq qiladi.

Ingliz tilida maqola yozishni O'zbekiston Milliy kutubxonasi joriy qilingan EBSCO HOST, WEB OF SCIENCE, SpringerLink, East view, JSTOR, ProQuest kabi xorijiy ilmiy-ta'limi bazalar yordamida o'rganish mumkin. O'zbekiston Milliy kutubxonasi 2021-yilning 1-martidan EBSCO kompaniyasining 12 ta ilmiy-ta'limi bazalariga onlayn obuna tashkil etilgan. Kutubxona foydalanuvchilar masofadan turib login va parol orqali EBSCO ma'lumotlar bazasidan shaxsosiy kompyuter va planshetlarida foydalanish imkoniyatiga egadir. EBSCO ma'lumotlar bazasi arxivni 1996-yildan chop etilgan 10 milliondan ortiq elektron va audio kitoblardan iborat. Foydalanuvchi audiokitoblar, matn va tasvirlarni yuklab olish, chop etish va yuborish mumkin. Bu orqali foydalanuvchi o'zida maqola yozish ko'nikmasini shakkllantiradi.

Aytish kerakki, O'zbekiston Milliy kutubxonasi ochilgan kundan to bugungi kungacha shakkllanib kelgan boy xorijiy adabiyotlarga ega. Ushbu adabiyotlar kutubxonaning 4-qavatida joylashgan "Jahon" o'quv zalida foydalanish uchun taqdim yetiladi. Adabiyotlarning 60 foizini ingliz, 30 foizini boshqa Yevropa tillari va 10 foizini sharq, avstroosyo, afrika va boshqa tillardagi hujjatlar tashkil yetadi. "Jahon" o'quv zali qimmatli va foydalanuvchilar tomonidan yeng ko'p so'raladigan nashrlar, jumladan, ensiklopediyalar, lug'atlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, badiiy adabiyot va o'lkashunoslik bo'yicha nashrlardan ochiq foydalanishni tashkil etgan. Mazkur o'quv zalidagi barcha kompyuterlarning ishehi stolida "Xorijiy elektron resurslar" nomli papka joylashgan. Xorijiy elektron resurslardan sizni qiziqtirgan mavzular bo'yicha hamda elektron ilmiy nashrlardan quylilik bilan foydalanishingiz mumkin. Bunday tashqari, Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi boshqa xorijiy tillarni o'rganuvchilar uchun ham adabiyotlar talaygina. Joriy yilning 2-mart sanasida Misr Arab Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi hamda Taraqqiyot yo'lida Misr Hamkorlik Agentligi hamda Misr Madaniyat vazirligi tomonidan O'zbekiston Milliy kutubxonasiiga arbati tilidagi adabiyotlarning taqdim etildi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda xorijiy tillarni o'rganish uchun imkoniyatlar kundan kunga kengayib bormoqda. Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi esa bu imkoniyatlarning yaqqol isbotini ko'rishingiz mumkin.

Dilobar YO'LDSHEVA,
Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti 401-guruh talabasi

NUKUS BO'YLAB BIR KUN

Ertalabki tongni qarshilash, quyoshning chiqishini kuzatish insonga xushkayfiyat bag'ishlaydi. Bugungi tong har kungidan ham boshqacha tarzda boshlandi. San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor Go'zal Xalikulova bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahriga yo'l oldik. Chunki Nukus filialida "Teatr va kino san'atida zamonaviylik" mavzusida respublika ilmiy-amalii konferensiya o'tkazilishi rejalashtirilgan edi. Konferensiya yuqori savyida tashkil etilib, unda 30 dan ziyyod professor-o'qituvchilar, 100 dan ortiq talabalar qatnashdi.

Shu o'rinda aytish lozimki, bugungi kunda professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan pedagogik ishlanmalar, yaratila-yotgan o'quv adabiyotlari o'z mohiyati, mazmuni va o'ziga xos metodikasi bilan bishish jarayonining kechishini ta'minlash muhimdir. Ushbu jarayon o'z maqsadi va vazifasiga ko'ra talabalar faoliyatining mustaqil, ijodiy, tezkor, sifat va samaradorlik darajasida amalga oshirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bugungi kunda zamon talabiga javob beradigan ijodiy ishlar ko'lami ham kengaygan. Teatr, kino, televideeniye, xalq ijodiyoti, an'anaviy

qo'shiqchilik, vokal san'atida bir qancha pedagogik yangiliklar ishlab chiqilib, ularni bishish jarayoniga olib kirish, qo'llash kabi bir qator masalalarni ijodiy hal etishga harakat qilish zarur. Konferensiyaning maqsadi ham shu masalalarga qaratigan.

Birinchi maqolani tinglar ekanman, ustoz san'atkor Najmaddin Ansetbayevning so'zlaridan o'zinga katta saboq oldim. Ustozning kuyunchaklik bilan Qoraqalpoq san'atini rivoj-lantirish, bugungi yosh avlodga an'ana sifatida ustozlarning mahorati, mehnati, yaratgan obrazarlarini qoldirish kerakligini ta'kidlab o'tdi.



Ta'lim jarayonida esa talabalarga ilmiy, bilimli, izlanuvchan bo'lish kerakligi, ayniqsa, ustozlarga bo'lgan hurmatni saqlab turish lozimligi haqida gapirib o'tdi.

Navbatdagi so'z O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori G.Xalikulovaga berildi. Ustoz o'zining "Sahna nutqi o'qitish metodologiyasini o'rganishning dolzarbligi" nomli maqolasini bilan ishtirok etdi.

Navbat mena berilganida "Qoraqalpoq teatrining jonkuyar ijodkorlari Marxabay Usenov ijodiga nazar" nomli maqolamda aks etgan

ijodkorning aktyorlik mahorati, rejissorlik faoliyati haqidagi ma'lumotlarni juda katta hayajon bilan gapirdim.

Yalpi majlisdan so'ng, konferensiya "Teatr va kino san'atida zamonaviylik (yutuqlar va muammolar)" deb nomlangan bo'lib, "Jahon va milliy tarixni o'rganish", "Teatr san'atining voyaga yetayotgan yoshlarining ma'naviy rivojida tutgan o'rni", "Zamonaviy teatr san'atida muammo va yechimlar" va "Qoraqalpoq san'atni vakkilaring ijodiy yutuqlari" yo'naliishlarda tashkil etildi.



“MADANIYAT” JAMOASI CHEMPION

Bu bosqichda Toshkent davlat texnika universiteti jamoasi bilan bellashdi. Murosasiz o'tgan bahsda jamoamiz hisobda ortda bo'la turib, 3:2 hisobi bilan musobaqaning yarim finaliga yo'llanmani qo'liga kiritdi. Toshkent shahridagi Yodju texnika instituti talabavoshlardan iborat jamoani mag'lubiyatga uchratib, finalga yo'l oldi.

Final bosqichida O'zbekiston Milliy universiteti hamda O'zbekiston davlat san'at

va madaniyat instituti talabalari yetib keldi. Institutimiz jamoasi raqiblarni 3:2 hisobida mag'lubiyatga uchratib championlikni qo'iga kiritdi.

Mana shunday qizg'in kurashlar ostida o'tgan bahslarda munosib ishtirok etib, muvaffaqiyatga erishgan, “Madaniyat” jamoasini “Students cup” mini-futbol musobaqasining Toshkent bosqichi championi bo'lishi uchun astoydil harakat qilgan talaba sportchilarimiz O'zbekiston davlat san'at va

madaniyat instituti rahbariyati tomonidan “Xiaomi Redmi Note 10” telefonlari bilan taqdirlanishdi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining barcha professor-o'qituvchilari, rahbar xodimlari, ishchi-xodimlar va talabalarini mazkur tarixiy g'alaba bilan samimiy muborakbos etamiz. Ushbu musobaqada institutimiz sha'nini munosib himoya qilgan talabalarimizning ustozlariga va ota-onalariga o'z tashakkurimizni bildiramiz!

NUKUS BO'YLAB BIR KUN

3 Nukus filiali talabalari tomonidan tashkil etilgan konsert dasturida “Sevimli yor” ariyasi bilan ishtirok etdim. Ishtirokchilar sertifikat bilan taqdirlandi. Konferensiya yuqori kayfiyatda o'z yakuniga yetdi.

Kunning ikkinchi yarmida Berdaq nomidagi musiqali teatr binosiga tashrif buyurdik. Teatr sahnasida “Qirqqiz” asari repetitsiya jarayoni ketayotgan ekan. Aktyorlarning ishlash jarayonini kuzatdik. Ularga halal bermagan holda, teatr fayesidagi suratlarni tomosha qildik. Nukus shahriga kelgan inson uning mashhur muzeysiiga tashrif

buyurmasdan ketishi xato hisoblanadi. Biz ham I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqlopg'iston davlat san'at muzeysiga tashrif buyurdik. Shu yerda sayohatimiz oxirgi nuqtasiga yetdi.

Toshkentga katta taassurotlar bilan qaytdik. Bunaqangi ijodiy uchrashuvlar, konferensiylar insonni charxlaydi. Keyingi ilm yo'liga bir qadam oldinga yurishga chorlaydi. Biz esa yana shunday ijodiy uchrashuvlarni kutib qolamiz.

Muhabbat DOSHANOVA,
O'zDSMI mustaqil izlanuvchisi

Dunyodagi eng nufuzli oliygochlari

Dunyoning turli nuqtalaridagi eng nufuzli, jahonga mashhur universitetlari haqida bilishni xohlaysizmi? Unda quyidagi ma'lumotlar orqali qiziqarli faktlarga ega bo'ling.

OKSFORD UNIVERSITETI, BUYUK BRITANIYA.

Oksford universiteti nufuzli oliygochlari reytingida sharafli birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Bu oliyoh “Buyuk Britaniya va Irlandiyaning qadimgi universitetlari” guruhiga hamda “Buyuk Britaniyaning eng yaxshi 24 universitetlari” obro'li guruhiga kiradi.

KEMBRIDJ UNIVERSITETI, BUYUK BRITANIYA.

Kembridj universiteti – Buyuk Britaniyaning qadimiylari yirik oliygochlardan biri bo'lib, Oksford universitetidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu yerda talaba va aspirantlarining o'qish va ilmiy ishlari bir necha fakultet, ilmiy tekshirish institutlari, laboratoriya olib boriladi.

88 nafar Nobel mukofoti laureatlarining nomi Kembridj universiteti bilan bog'liq, shuning uchun ham u dunyoning eng nufuzli oliygochlari ro'yxtida sharafli o'rnlardan birini egallaydi.

STENFORD UNIVERSITETI, AQSH.

Stanford universiteti – AQSH dagi xususiy universitet bo'lib, AQSH hamda dunyodagi eng nufuzli va reytingi baland oliygohdir. Palo-Alto shahri yaqinida joylashgan universitet yuridik, tibbiyot, texnik, musiqa va boshqa ko'plab fakultetlardan iboratdir. Universitet Kremniy vodiysida joylashgan. Uning bitiruvchilari dunyoga mashhur bir nechta kompaniyalarining asoschilaridir.

KALIFORNIYA TEXNIKA UNIVERSITETI.

Kaliforniya texnika universiteti – xususiy universitetlardan biri bo'lib, Kaliforniya shtatining pasadina shahrida joylashgan, AQSH ning eng yetakchi universitetlаридан biri hisoblanadi hamda aniq fanlar muhandislikka ixtisoslashtirilgan.

NASA avtomatik kosmik apparatlarining katta qismini ishga tushiruvchi reaktiv harakat laboratoriysi aynan mana shu universitetga qarashlidir.

Kaliforniya texnika universitetining 17 ta bitiruvchilari va 18 nafar professorlari Nobel mukofotining laureatlaridir.



GARVARD UNIVERSITETI.

Garvard universiteti – AQSH va butun dunyodagi mashhur va qadimiy oliygohlaridan biridir. Nobel mukofotining 75 nafar laureati talaba, o'qituvchi va xodim sifatida ushbu universitet bilan bog'liq bo'lganlar. Universitet bitiruvchilarining orasida millearderlar sonining ko'pligi bilan mamlakatda birinchi o'rinni egallaydi, kutubxonasi esa mamlakatdagi eng yiriklaridan bire hisoblanadi.

IMPERATORLIKKA QARASHLI LONDON KOLLEJI.

Imperatorlikka qarashli London kolleji – Janubiy Kensingtongdagi oliy o'quv yurtlaridan bire bo'lib, ilm, muhandislik, tibbiyot va biznesga ixtisoslashgan. Ushbu kollej Londonning Oksford hamda Kembridj universitetlari bilan birga Oltin uchlik deb nomlanuvchi eng nufuzli oliygochlari guruhiga kiradi.

CHIKAGO UNIVERSITETI.

Chikago universiteti – 1890-yilda tashkil etilgan bo'lib, xususiy tadqiqot universiteti hisoblanadi.

87 nafar Nobel mukofotining laureatlari ushbu dargohda ta'lim olganlar, bu AQSH universitetlari orasida rekordli ko'rsatkich hisoblanadi. Nobel sovrindorlarining 17 nafari o'z tadqiqotlarini Chikago universitetining hududida olib borganlar.

Internet ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir
Eldor SHERMANOV

Tahrir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Ma'rufjon YO'LDOSHEV
Rashid USNATOV
Jumagul NISHONOVA

Mas'ul kotib:
Anvar QOBILOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yang'och mavzlesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.
www.dsni.uz;
nashriyot@dsni.uz

Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'lchami – A3,
hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 319 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 27.05.2022-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami
bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz –1.

YOSHLAR IJODIDAN

Jim ketasan ajal kelsa yoningga

Azizim shukur qil har bir oningga,
Shukur qil g'animat tanda joningga.
Bugun bormiz lekin erta dargumon,
Jim ketasan ajal kelsa yoningga.

Na bir yumushlaring bitirolasan,
Na bir yaqinlaring ko'nglin olasan.
Bir so'z deyolmasdan tildan qolasan,
Jim ketasan ajal kelsa yoningga.

Duo qil jannatlar eshigin ochsin,
Shayton degan zotlar yoningdan qochsin.
Ollohim boshingdan rahmatin sochsin,
Jim ketasan ajal kelsa yoningga.

Sevaman demang

Yuragimni teshgan o'qlar bor,
Ma'yus ko'nglim muhabbatga zor.
Meni deyishadi dilafgor,
Sevdim demang, sevaman demang.

Ko'z yosh to 'kib yig'laydi qalbim,
Dunyolarga sig'maydi derdim.
Yo'llaringga zorman dema jim,
Sevdim demang, sevaman demang.

Men ko'kdagi to 'lgan oy emas,
Botayotgan quyosh bilsangiz.
Baxt neligin bilmay o'tsangiz,
Bir umr Suhrobni seysangiz,
Sevdim demang, sevaman demang.

Hijron

Sensizlik yomonda, sensizlik og'ir,
Ishqning o'chog'ida yonib yashayman.
Seni o'ylasam yor yuragim og'ir,
Hijron sharobidan qonib yashayman.

Alamlar dilimni tiladi tinmay
Qalbim zor yig'laydi aqlimga ko'nmay
Ming bor o'lib bo'ldim hali bir o'lmay,
Men shu taqdirimga ko'nib yashayman.

Suhrob ABDULLAYEV,
Xalq ijodiyoti fakulteti talabasi